



SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH TAMOYILLARI.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

talabalari

Toshtemirova Muxlisa Davronbek qizi

Tel-(998) 94 202 06 03

Email-muxlisatoshtemirova2@gmail.com

Qodirova Ozoda Rahmaddin qizi

Tel- (998) 91 077 00 57

Email-ozodaraxmiddinovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola soliqning mazmuni va hozirgi kunda undagi o'zgarishlar va qo'shimcha yangiliklar va qonunlarkiritilgan. Shuningdek soliqqa tortish va uning tamoyillari ham alohida aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Soliq, Qo'shilgan qiymat solig'i, daromat solig'i, meros hamda hadya solig'i, Tovar va aylanma solig'i, savdo solig'i, eksport va import solig'i, byudjet

Kirish:

Soliq-davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini ta'minlash uchun davlat organlari tomonidan tashkilot va jiemoniy shaxslardan yig'ib olinadigan to'lovga aytildi. Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Shuningdek, soliq iqtisodiy turkum sifatida, sof daromadning bir qismini budgetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Agar soliqlarni vaqtida to'lomasak jinoyiy javobgarlikga tortilamiz. Soliqlarni har yilda to'lashimiz lozim. Soliq uchun misollar: Yer soligi, Mol- Mulk soligi va h.k Soliqning kelib chiqishi davlatning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, juda qadimiy tarixga ega. Tarixiy manbalarda bundan 3760-yil muqaddam Bobil davlatida Hammurapi qonunlari bilan soliqning joriy etilgani to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Hozirgi davrda ham davlat bajaradigan vazifalarni mablag' bilan ta'minlash muammosi soliqning obyektiv zarurligini keltirib chiqaradi.

Undirish usuliga ko'ra, To'g'ri va Egri soliqga bo'linadi. To'g'ri Soliq mol-mulk va daromadga bevosita joriy qilinadi va soliq to'lovchi tomonidan oraliq vositachilarsiz to'lanadi. Keng tarqalgan turlari:

- 1) Qo'shilgan qiymat solig'i
- 2) Darmoad solig'i
- 3) Meros hamda hadya solig'i



- 4) Tovar aylanma solig'i
- 5) Savdo solig'i
- 6) Eksport va import solig'I va hkz

Egri soliq (aksizlar) tovar (xizmat)lar narxlariga yoki tariflarga kiritish mo'ljallangan va keyinchalik tovarlar iste'molchilariga yuklanadigan Soliq Davlat tuzumi xususiyatlariga ko'ra, Soliq tizimi umumdavlat (markaziy) va mahalliy (ma'muriy-hududiy birliklar) Soliq va yig'imlardan tashkil topadi. O'zbekiston Respublikasida Soliq tizimining huquqiy asoslari, uni to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatları, soliq ishlarini yuritish tartiboti 1997-yil 24 aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan umumdavlat Soliqi: yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) soligi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Umumdavlat Soliqi har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi. Mahalliy Soliq va yig'implar — molmulk soliq; yer solig'i; reklama solig'i, avtotransport vositalarini sotganlik uchun soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligi, savdosotiq huquqi uchun yig'im; obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqa Mahalliy soliq va yig'implar mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Davlat tomonidan undirilgan Soliq byudjet vositasida qayta taqsimlanib, soliq to'lovchilarga sog'liqni saqlash, maorif, ilm-fanni rivojlantirish, mudofaa, xuquqni muhofaza qilish kabi ijtimoiy zarur davlat xizmatlari orkli bilvosita yo'llar bilan qaytadi. O'zbekistonda soliq nazariyasi va amaliyotiga oid materiallar, shu sohaga doir boshqa masalalar "Soliq to'lovchining jurnali"da (1995-yildan o'zbek va rus tillarida chiqadi) yoritiladi.

Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari bирgalikda soliq tizimini tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

1. davlat xarajatlarini moliyalashtirish (**fiskal vazifasi**);
2. ijtimoiy tanglikni yumshatish (**ijtimoiy vazifasi**);
3. iqtisodiyotni tartibga solish (**tartibga solish vazifasi**).

Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsada, davlat sarflari miqyosining o'sishi o'z navbatida soliqlarning o'sishini taqozo qiladi va uning darajasini belgilab beradi. Hozirgi davrda umumiy tendensiya bo'lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining o'sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi.

- Aholi sonining o'sishi.
- Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.
- Atrof-muhitning ifloslanishi.
- Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.



- Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta'minlash xarajatlari hajmining o'sishi.

O'zbekistonda soliqlar tizimi tarkibi

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliqlar va yig'imlar
YUridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq.	Mol-mulk solig'i.
Jismoniy shaxslar daromadiga soliq.	Er solig'i.
Qo'shilgan qiymat solig'i.	YAgona soliq.
Aksiz solig'i.	Infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
Er osti boyliklaridan foydalanish solig'i.	Jismoniy shaxslarning transport yoqiligi ushun iste'mol solig'i.
Suv resurslaridan foydalanganlik ushun soliq.	Jismoniy shaxslar shetdan tovarlar olib kelganligi ushun yagona bojxona to'lovi.
Savdo va umumiyligi ovqatlanish tashkilotlaridan yalpi daromad solig'i.	Savdo huquq yig'imi, shu jumladan alohida tovarlarni turlarini sotish litsenziya yig'imi.
Bojxona boji.	Ishbilarmonlik bilan shug'ullanuvshi huquqiy hamda jismoniy shaxslarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi.
Davlat boji.	Boshqa to'lovlar.
Kimmatli qog'ozlarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi.	
Boshqa daromadlar.	

Soliqlarning funksiyasini o'rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko'plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarni qayd etishgan. Soliqqa tortish tamoyillarini A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergen: 1. Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zları hukumat muhofazasida foydalanyotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim. 2. Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqt va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur. 3. Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtida va tartibda undirilishi kerak. 4. Har bir soliq shunday tarzda o'rnatilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan



ketadigan pul davlat budgetiga kelib tushadigan mablag‘ga nisbatan ortiq bo‘lishiga mumkin qadar yo‘l qo‘yilmasin. Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta’riflab o‘tish mumkin: 44 Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyiliga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo‘lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo‘jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliya resurslari to‘planishini ta’minalashi lozim. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, soliq stavkalari soliq yuki ko‘rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to‘lovchi soliq to‘lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo‘lgani holda ayni chog‘da o‘zining ba’zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiy foydalanish yo‘llarining holati yaxshi saqlanishini ta’minalash bilan soliq to‘lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog‘liqni saqlashni ta’minalash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi, demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo‘ladi. Shunday qilib, to‘langan soliqlarning faqat xizmatlar ko‘rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko‘rsatkichi hisoblanadi. Umuman olganda, yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat‘i ravishda uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Soliq tizimi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, jumladan, chet el subyektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag‘ yo‘naltirishni, ya’ni kapital jamg‘arish va shu yo‘l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishi lozim. Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to‘sqinlik qilmasligi hamda xo‘jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo‘ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo‘lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdagи iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdan manfaatdorligiga putur yetkazsa, mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug‘iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zaxiralar, banklardagi pul mablag‘larining barakasi uchishiga, ilgari to‘plangan mablag‘- larning yeyilib ketishiga olib keladi. 45 Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyili Soliqqa tortish, agar u, birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo‘lgan iste’ molning minimal hajmlariga salbiy ta’sir etsa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag‘batlarning harakat doirasini toraytirib qo‘ysa, uchinchidan, jamg‘arma miqdorini kamaytirsa va mablag‘- ning to‘planish jarayonini sekinlashtirsa ishlab chiqarish imkoniyatlarini yomonlashtirib yuborishi mumkin. Soliqqa tortish bazasi va uning hajmlarini noto‘g‘ri belgilash xodimlarning malaka oshirishga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug‘ullanishga va boshqa sohalarga bo‘lgan intilishiga salbiy ta’sir etadi. Soliqqa tortishning iqtisodiy omillarga ta’siri ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi, ya’ni qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg‘arish, investitsiyalash, yangi g‘oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko‘rinishlari bilan shug‘ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag‘batlantirishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliqqa tortishda



bunday oqibatning rag‘batlantirishga zid ta’siri yaqqol ifodalanadi. Dunyodagi bir qator mamlakatlarda kapitaldan kelgan daromad va iste’molga qarab soliqqa tortishni ko‘zda tutgan soliq islohoti o‘tkazilmoqda. Soliqqa tortishning salbiy ta’sirini sillqlash maqsadida ishchi kuchini taklif etish sohasida ish haqi ko‘rinishidagi daromadlardan olinadigan soliqlarning eng yuqori qilib belgilangan stavkalari pasaytirilmoqda. Jamg‘arish va investitsiyalashga soliqlarning ta’sir etishi borasida ham muayyan natijalarga erishilmoqda. Soliqlarning ta’siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko‘rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat budgeti daromadlarining o‘zgarishiga ham ta’sir etmay qolmaydi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda soliq stavkalarining pasaytirilishi, tadbirkorlik subyektlariga o‘zlarining faoliyatlarini olib borishda yengillik va keng imkoniyat yaratmoqda. Shunga qaramay soliq qarzi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarimiz talaygina. Fikrimizcha soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarz dorlikni kamaytirish ularni muddatida va to‘liq undirish samaradorligini oshirishda quyidagi takliflar o‘z samarasini beradi deb hisoblaymiz: 1. Germaniya davlatida soliq qarzlaridan voz kechish holatlari ko‘p uchraydi. Bu aynilsa kichik tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda ham ushbu konsepsiyanı qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda soliq qarzi kechilayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari kelajakda ishlab ketilishiga ishonch hosil qilinishini e’tiborga olish lozim. 2. Amaliyotda jinoiy ish doirasida o‘tkazilgan soliq auditni natijasida qo‘simecha hisoblangan soliqlar, shu jumladan moliyaviy sanksiyalar soliq to‘lovchi tomonidan jinoiy ish o‘tkazgan vakolatli organning deposit hisobraqamiga to‘lanadi, lekin ushbu summa soliq organining bazasida ko‘rinmaydi va soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida aks etmaydi. Buning oqibatida soliq to‘lovchining hisobraqamiga avtomat inkasso topshiriqnomasi qo‘yiladi hamda soliq to‘lovchi ikki yoqlama soliq tortilishiga olib keladi. Mazkur masala yuzasidan Soliq kodeksiga tegishli o‘zgartirish va qo‘simechalar kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. 3. Xorij tajribasida soliq qarzini majburiy undirish bilan shug‘ullanadigan alohida xususiy firmalar mavjud. Soliq qarzi uzilmaganda soliq organi mazkur firmalar bilan hamkorlikda undirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda ham ushbu tizimni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 4. Jismoniy shaxslar tomonidan yer va mol-mulk soliqlari o‘z vaqtida to‘lanishi va ularda to‘lov mas’uliyatini oshirish maqsadida, soliqlarni kechiktirib to‘lagan har bir kun uchun penya hisoblash bilan birlgilikda to‘lov intizomini buzganligi uchun ma‘muriy jarima qo‘llanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlami chuqurlashtirish yo‘lida», «O‘zbekiston» I995-y.



2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. «O'zbekiston» 1992-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. «O'zbekiston» 2004-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi. «Xalq so'zi» gazetasi. 1998-yil. 3-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'g'risida» gi Qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi. 2000. 14 yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. Yanvar, 1994. «Korxona to'g'risida»gi Qonun. 1995-y. «Moliyaviy qonunlar». 1995-yil
- . 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «davlat byudjetiga soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berishni tartibga solish to'g'risida»gi 1999-yil 26-iyun Farmoni. T.; 2000. Adolat.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirdorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1987-sonli Farmoni.
9. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li.T., O'zbekiston, 1993.-108-b
10. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'naliishlari T., O'zbekiston, 1993 -53-b.